

KIBERJINOYATLAR VA ULARNING OLDINI OLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Maxammadxonov Shohjaxon Bahromjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Shohjaxon0201@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu tezisdagi kiberjinoyatlar tushunchasi, ularning huquqiy mohiyati va oldini olishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Ishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, 2001-yilgi Budapesht konvensiyasining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kiberjinoatchilikka qarshi kurashishning milliy va xalqaro tajribasi solishtirib o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida kiberjinoatlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, profilaktika choralarini kuchaytirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyat, axborot xavfsizligi, Budapesht konvensiyasi, huquqiy tartibga solish, kiberxavfsizlik, jinoatchilik profilaktikasi.

Аннотация: В данной работе рассматриваются понятие киберпреступлений, их правовая природа и основные направления их предотвращения. Анализируется действующее законодательство Республики Узбекистан и международные правовые акты, включая значение Будапештской конвенции 2001 года. Сравнительно изучен национальный и международный опыт противодействия киберпреступности. В результате исследования разработаны предложения по совершенствованию системы борьбы с киберпреступлениями, усилению профилактических мер и обеспечению информационной безопасности.

Ключевые слова: киберпреступление, информационная безопасность, Будапештская конвенция, правовое регулирование, кибербезопасность, профилактика преступлений.

Annotation: This thesis examines the concept of cybercrime, its legal nature, and the main directions for its prevention. The study analyzes the current legislation of the Republic of Uzbekistan and international legal instruments, particularly the 2001 Budapest Convention. It also compares national and international practices in combating cybercrime. Based on the research, several proposals are developed to improve the system for countering cybercrime, strengthen preventive measures, and enhance information security.

Keywords: cybercrime, information security, Budapest Convention, legal regulation, cybersecurity, crime prevention.

So'nggi yillarga kelib axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi odamlarning kundalik hayotining tubdan o'zgartirib yubordi. Endilikda odamlar har bir ishida ma'lum bir texnologiyadan foydalanmoqda ya'ni texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Ushbu jarayon davomida kiberjinoyatlar deb ataluvchi yangi turdagi huquqbuzarlik vujudga keldi va ko'plab insonlarni o'z qurboniga aylantirdi. Kiberjinoyat - bu kompyuter texnologiyalari, internet tarmoqlari yoki raqamli qurilmalar yordamida sodir etiladigan jinoyat bo'lib, ular nafaqat shaxslarning mol-mulkiga, balki ularning shaxsiy ma'lumotlari, shaxsiy hayot daxlsizligiga shuningdek davlat xavfsizligiga ham jiddiy tahdid tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda va ushbu masalani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2020-yilda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilinib, uning doirasida axborot xavfsizligini ta'minlash, kiberjinoyatlarning oldini olish hamda xalqaro tajribani milliy qonunchilikka integratsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kiberjinoyatlarning umumiy ta'rifi xalqaro huquqda turlicha izohlanadi. BMTning 2001-yilgi Budapesht konvensiyasida kiberjinoyatlar "kompyuter tarmoqlari yoki tizimlariga ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarni o'zgartirish, yo'qotish yoki ularni noqonuniy maqsadlarda ishlatish" sifatida belgilangan bo'lib hozirgi vaqtga qadar kiber jinoyatlar bo'yicha eng muhim xalqaro hujjat bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2781-moddasidan 2784-moddasigacha axborot xavfsizligi sohasidagi jinoyatlar keltirilgan bo'lib, bular jumlasiga quyidagi huquqbuzarliklarni kiritishimiz mumkin:

- axborot tizimlariga noqonuniy kirish,
 - kompyuter ma'lumotlarini buzish, yo'q qilish yoki o'zgartirish,
 - zararli dasturiy vositalarni tarqatish,
 - shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy yig'ish va tarqatish,
- kabi harakatlar jinoyat sifatida ko'rsatilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki ular juda ko'p holatlarda transmilliy tusga ega bo'ladi va bir davlat hududida sodir etilib, boshqa davlatda oqibatlar keltirib chiqaradi. Shu sababli ham bu jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik juda muhim hisoblanib, davlatlarni birlashtiradi.

Hozirgi vaqtda kiberjinoyatlarning boshqa turlari ham ko'payib bormoqda. Lekin bularni aniq bir kiberjinoyat sifatida O'zbekiston qonunchiligida tan olinmagan. Masalan shaxslarni nomiga hakerlar tomonidan online kredit rasmiylashtiriladi, jabrlanuvchi esa buni toki bank kelib habar berguniga qadar bilmaydi. Natijada bank jabrlanuvchidan kreditlarni to'lashni

talab qiladi. Ichki ishlar xodimlari esa ko'p holatlarda ushbu kiberjinoyatchilarni topib bera olmaydilar. Qonunchiligimizda esa agar kiberhujumga uchrashi natijasida nomiga kredit rasmiylashtirilsa, kredit qarzdorligi jabrlanuvchini qarzdorligidan chiqarilishi lozimligi haqida hech qanday norma mavjud emas. Bu esa fuqarolarga qiyinchilikni keltirib chiqarmoqda. Chunki o'zi olmagan va o'zi ishlatmagan kreditini to'lashga majbur bo'lmoqda. Ushbu vaziyatdagi asosiy aybdorni bank deb hisoblayman. Chunki bank o'zining kredit berishga yo'naltirilgan platformalarida xavfsizlik choralari ko'rishi lozim edi.

Yildan yilga qonunchiligimiz mukammallashtirilib, to'ldirilib borilmoqda. So'nggi yillarda milliy qonunchilik xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Misol uchun Budapesht konvensiyasiga qo'shilish masalasi O'zbekiston tomonidan ko'rib chiqilmoqda. Agar ushbu konvensiyaga qo'shilsa kiberjinoyatlarning xalqaro darajadagi tergov va profilaktikasi uchun muhim huquqiy asos bo'ladi. Shuningdek O'zbekistonda fuqarolarni aldagan chet eldagi shaxslarni ham izlash, topish imkoniyati paydo bo'lishi mumkin va bu kiberjinoyatlarni oldini kamaytiradi.

Hozirgi vaqtda kiberjinoyatlarning oldini olish uchun avvalo fuqarolarning huquqiy bilimlarini rivojlantirish lozim deb hisoblayman. Bundan tashqari turli xil turdagi platformalarda ham xavfsizlikni ortirib, turli xildagi kiberhujumlarga chidamli qilib, tayyorlash lozim. Shu yo'l bilangina biz kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashishimi va ularni yengishimiz mumkin. Bo'lmasa jinoyatchilarni topolmaymiz.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, davlatimiz kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha to'liq tizim ishlab chiqilmagan va buning natijasida ko'plab fuqarolar zarar ko'rmoqda. Shu sababli ham kiberjinoyatlarga kurashish bo'yicha tezroq yangi qonun qabul qilinishi va uni amaliyotga joriy qilinishi lozim. Shu yo'l bilangina kiberjinoyatlarni oldini olish mumkin. Shuningdek kiberjinoyatlar qurboniga aylanayotganlar o'rganib chiqilib, ular qayerlarda ushbu kiberjinoyatchilar hujumiga duch kelganini aniqlanishi va o'sha sohalardagi nazorat kuchatirilishi lozim deb hisoblayman. Zero davlat fuqaroga ishonsagina uni sevadi va unga bo'ysinadi. Davlatga fuqaroni ishonishi uchun esa davlat o'z fuqarolarini himoya qilishi va buzilgan huquqlarini tiklab berishi lozim.